

Iqtisodiy masalalarni yechishda differensial hisob usullaridan foydalanish

Baxodir Qobuljon o'g'li Mamasidiqov
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy masalalarni yechishda differensial hisob usullaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy masala, differensial hisob usullari, limit

Use of differential calculus methods in solving economic problems

Bakhodir Qabuljan o'glu Mamasidikov
Tashkent Financial Institute

Abstract: This article provides information on the use of differential calculus methods in solving economic problems.

Keywords: economic problem, differential calculation methods, limit

Hayotimiz davomida juda ko'plab turli xil muammolarga duch kelamiz. Shulardan eng jiddiylari iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Jamiyat taraqqiyoti bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik va ularning rivojlanishi bilan bog'liq. Talabalarda iqtisodiy bilimlarni oshirish, matematika va bozor iqtisodiyotining o'zaro uzviy bog'langanini ko'rsatish zarur. Iqtisodiy masalalarda qachon "eng ko'p foyda" olamiz yoki qachon "eng kam zarar" qilishimiz eng muhim masala hisoblanadi. "Bunday masalalarni hal qilish eng kichik va eng katta miqdorlar nazariyasini tashkil qiladi" - deb yozgan edi ulug'rus matematigi P.L.Chebishev [1].

Biz ma'lum bir buyumni imkoniyati boricha arzonroq olishga yoki qisqa vaqt ichida imkoniyati boricha ko'proq foyda olishga harakat qilamiz. Shuning uchun bizning kundalik ishlarimizni ideallashtiradigan maksimum va minimumga doir masalalar diqqatimizni tortadi. O'quvchilar bilan bo'ladigan mashg'ulotlarda butun e'tiborimizni ekstrimal masalalarni yechishga, differensial hisob usullaridan foydalanishga qaratamiz.

Iqtisodiyotda turli xil jarayonlarni tahlil qilishda limit miqdorlar tushunchasi keng ishlatiladi. Misol tariqasida limit qiymat, limit xarajatlar, limit daromad, limit unumdorlik, limit foydalilik, limit iste'molga moyillik tushunchalarini keltirishimiz

mumkin. Bu tushunchalarning barchasi funksiya hosilasi tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Biror bir mahsulotni x miqdorda ishlab chiqarish uchun $y(x)$ xarajat qilinsin. U holda $y'(x)$ – mahsulot miqdori x o'zgarganda xarajatlar o'zgarishi tezligini ifodalaydi. Bu hosilaga limit (*marjinal*) qiymat deyishadi va $My(x) = y'(x)$ deb belgilash kiritilgan [3].

Bizga analiz kursidan ma'lumki hosilaning taqribiy qiymati sifatida

$$My(x) = y'(x) \approx \frac{\Delta y}{\Delta x} \quad (1)$$

ifodani qabul qilishimiz mumkin. Bu yerda Δy funksiya orttirmasi, Δx esa argument orttirmasi.

Agar argument orttirmasi $\Delta x = 1$ deb olinsa (bu umumiylikka ziyon yetkazmaydi), (1) ni ushbu ko'rinishda yozishimiz mumkin.

$$y'(x) \approx \frac{y(x+1) - y(x)}{\Delta x} = y(x+1) - y(x) \quad (2)$$

(2) tenglikda olingan $y(x+1) - y(x)$ ayirma mahsulot miqdorini yana bir birlik ishlab chiqarganda xarajatning qanchaga o'zgarishini ifodalaydi. Demak, iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraganda limit xarajat $y'(x)$ qo'shimcha bir birlik mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan xarajaddir [2].

O'rtacha xarajat esa quyidagicha topiladi.

$$\bar{y} = \frac{y}{x} \quad (3)$$

Sodda bir masalani qarab o'tamiz.

1-masala. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi x va ishlab chiqarishga ketgan xarajat y o'rtasidagi bog'lanish chiziqli $y = 5x + 30$ funksiya bilan berilgan. $x = 100$ birlik mahsulot ishlab chiqarilganda limit xarajatni toping.

Yechilishi: Yuqoridagi ko'rsatilganidek, limit xarajat $y'(x)$ orqali topiladi. $y'(x) = (5x + 30)' = 5$ bu esa $x = 100$ birlik mahsulotni ishlab chiqarganda qo'shimcha bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketadigan xarajatning 5 birlikni tashkil etishini ko'rsatadi. Agarda (2) formula bilan hisoblaydigan bo'lsak

$$y'(100) = y(101) - y(100) = 5 \cdot 101 + 30 - 5 \cdot 100 - 30 = 1$$

ni hosil qilamiz.

Biz ko'rayotgan hol uchun $y'(x)$ limit xarajat x ga bog'liq emas. Shuning uchun nafaqat $x = 100$ balki barcha x lar uchun 5 ga teng. Lekin xarajat funksiyasi chiziqalmas funksiya bo'lganda bu holat yuz bermaydi.

Endi chiziqalmas xarajat funksiyasi uchun qarab chiqamiz.

2-masala. Ishlab chiqarish xarajati miqdori quyidagicha bog'lanishga ega $y = 70x - 0,5x^2$. Ishlab chiqarish hajmi $x = 10$ birlik bo'lganda o'rtacha va limit xarajat miqdorlarini toping.

Yechilishi: (3) formulaga ko'ra o'rtacha xarajat

$$\bar{y} = \frac{70x - 0,5x^2}{x} = 70 - 0,5x$$

Bundan ishlab chiqarish hajmi $x = 10$ birlik bo'lganda o'rtacha xarajat $\bar{y} = 65$ birlik ekan. Limitik xarajat esa $My(10) = 60$ birlik bo'ladi.

Demak, o'rtacha xarajat 65 birlik bo'lganda qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan xarajat limitik xarajat 60 birlikni tashkil etdi, ya'ni bu o'rtacha xarajadan ziyod emas.

Endi foydani maksimallashtirish va optimallashtirish masalalarini qaraymiz. Iqtisodiyotda foydani va xarajatlarni realizatsiya qilish muhimdir. Albatta, bu funksiyalarning ko'rinishi juda ko'p omillardan bog'liq, xususan, ishlab chiqarish usuli, infrastrukturani optimallashtirish, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash, marketing tadqiqotlarini o'tkazish va h.z.

Realizatsiya qilingan mahsulot miqdorini x , daromad funksiyasini $R(x)$, ishlab chiqarish xarajat funksiyasini $C(x)$ deb belgilaymiz. U holda foyda funksiyasi $F(x) = R(x) - C(x)$ bo'ladi. Albatta, har qanday ishlab chiqaruvchi oldida foydani maksimallashtirish masalasi turadi. Analiz kursidan ma'lumki, Ferma teoremasiga ko'ra maksimal qiymatda $F'(x) = 0$ bo'ladi. Demak, $R'(x) = C'(x)$ ekanligidan va iqtisodiy belgilash kiritsak oxirgi tenglik $MR(x) = MC(x)$ ko'rinishni oladi [20,22,23].

3-masala. Ishlab chiqarishning daromad va xarajat funksiyalari mos ravishda quyidagicha berilgan bo'lsin:

$$R(x) = \frac{x^3}{3} + 180000x, C(x) = 450x^2.$$

Ishlab chiqarishning maksimal foyda beruvchi hajmini va undan olinadigan foydani toping.

Yechilishi: Berilganlardan foyda funksiyasini tuzib, hosilasini nolga tenglashtirsak

$$x_{1,2} = \frac{900 \pm 100\sqrt{81 - 4 \cdot 18}}{2} = 450 \pm 50 \cdot 3$$

hosil bo'ladi. Demak, $x_1 = 600$ va $x_2 = 300$ bo'lar ekan.

Endi ekstremumning yetarlilik shartlariga ko'ra, $x_i, i = 1,2$ nuqtada $F(x)$ funksiya maksimal qiymatga ega bo'lishi uchun $F''(x) < 0$ bo'lishi kerak [2]. Ikkinchi tartibli hosila $F''(x) = 2x$ bo'lgani uchun, $F''(x_1) > 0$, $F''(x_2) < 0$ bo'ladi.

Demak, $F(x)$ maksimal qiymat beruvchi ishlab chiqarish hajmi $x_2 = 300$ bo'lib, bu qiymatda foyda 22500000 pul birligiga teng ekanligi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safaeva Q., Shomansurova D. "Iqtisodiyotda matematika" Toshkent 2010

2. Sytsaeter Kn., Hammond P., Strom A. Essential Mathematics for Economic Analysis. Pearson Education Limited. London, New York 2014
3. Piskunov N.S. Differentsial va integral hisobi. I - II tomlar. -Toshkent: O'qituvchi, 1974.
4. Alimov.Sh, Ashurov R. Matematik analiz, 1-2-qismlar, Toshkent: Mumtoz so'z 2018.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish orqali korxonalar resurslarini boshqarish

Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar resurslarini avtomat boshqarish tizimida buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, zamonaviy texnologiyalar, IT, korxonalar

Management of enterprise resources through organization of accounting

Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov
Tashkent Financial Institute

Abstract: In this article, opinions were expressed on the importance of the organization of accounting in the system of automatic management of enterprise resources in the digital economy.

Keywords: digital economy, modern technologies, IT, enterprise

Raqamli iqtisodiyotga borasidagi qiziqish iqtisodiyot va jamiyatda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sib bormoqda desak mubolagá bo'lmaydi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar, hamkorlar, mijozlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga ko'mak berdi. Shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, elektron yoki raqamli iqtisodiyot paydo bo'ldi. «Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi termin bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi. Ko'pgina davlatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun uchta model mavjud.

Birinchi model rivojlangan davlatlarni o'z ichiga oladi: Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSH. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, yaqinda AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish modellari kesishish jarayoni boshlandi. Bu esa mamlakatlar o'rtasidagi o'xshashlik bir qator

sabablarga bog'liq: ishlab chiqarish va bandlik tuzil-masini xizmat ko'rsatish sohasi va ilmiy jihatdan intensiv ishlab chiqarish foydasiga o'zgartirish; hosildorlikning o'sishi asosida ishlab chiqarishni jadallashtirish; bu iqtisodlarning tashqi sharoitlardan mustaqilligini, ularning progressiv va o'z-o'zini ta'minlashga qaratilgan investitsiyalar va jamg'armalarning ichki manbai; ushbu ikki mintaqaning o'zaro bog'liqligini dunyoning qolgan qismidan progressiv yopish fonida tezda chuqurlashtirish. Ushbu o'xshash elementlarning aksariyati AQSH va Yevropa Itti-foqimamlakatlarida teng darajada rivojlangan ilmiy va texnologik taraqqiyot tendentsiyalari bilan bog'liq¹.

Ikkinchi model - "Taraqqiyotga erishish" modelidir. Bu modelni yangi sanoat mamlakatlari shakllantiradi. So'nggi paytlarda Tayvan va Singapur raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega bo'lmoqdalar, bu hatto ba'zi jihatdan Yaponiyadan ham ustundir. Mazkur davlatlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha etakchi ikkinchi guruhda hisoblanadi². Biroq, turmush darajasi va ijtimoiy kapitalning rivojlanish darajasibo'yicha ushbu davlatlar orqada qolmoqda. Bundan tashqari, bu model boshqa ma'noda korxonalar darajasida ham, davlat darajasida ham biznes jarayonlarini samarali boshqarishning oqsoqligi bilan tavsiflanadi.

Rivojlangan bir qator mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq qismini tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Iqtisodiy diversifikatsiyalashuv va uning dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, bu davlat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu sababli ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot tez sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu –savdo, transport, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularda electron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng e'tiborlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib boradi. Rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyotning ulushi 2018-yildan 2022-yilgacha 4,3% dan 5,5% gacha, rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida 3,6% dan 4,9% gacha o'sdi.

"Katta yigirma" mamlakatlarida bu ko'rsatkich besh yil ichida 4,2% dan 5,4% gacha o'sdi.

Statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, YaIMda raqamli iqtisodiyot ulushi bo'yicha jahon rahbari Buyuk Britaniya-12,4%. 2016-yilda e'lon qilingan Xalqaro ma'lumotlar korporatsiyasi tahlilchilarining tadqiqotiga ko'ra, raqamli transformatsiya texnologiyalarining bu-tun dunyo global xarajatlari har yili 16,8 foizga o'sadi va 2019-

¹ <https://kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari/>

² https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Article_42_0.pdf/

yilga kelib 2,1 trln. AQSH dollarini tashkil etadi. Accenture konsalting kompaniyasining prognozlariga ko'ra, 2023-yilda raqamli texnologiyalardan foydalanish 1,46 trln. AQSH dollarini yoki dunyoning o'nlab yetakchi jahon iqtisodiyotlarining yalpi ichki mahsulotidagi YaIMning 2,4 foizini tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarning yalpi ichki mahsuloti "raqamli iqtisodiyot" hisobiga 1,9 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlar YaIM esa 3,5 foizga o'sadi. Raqamli iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishi bir qancha ilg'or texnologiyalarning muvaffaqiyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday beshta texnologiyani ajratib ko'rsatish mumkin:

- 5G - aloqa;
- 3D - bosma;
- blokcheyn;
- sun'iy intellekt (AI);
- virtual haqiqat³.

Sanab o'tilgan zamonaviy texnologiyalar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarning strategik hujjatlarida belgilangan eng muhim rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning eng muhim va hal qiluvchi texnologiyasi-bu raqamli platformadir. Raqamli iqtisodiyot platformasi - iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning ehtiyojlarini ta'minlaydigan funktsiyalar va xizmatlar to'plami bilan raqamli muhit, hamda, ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish imkoniyatlarini amalga oshiradi.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat zamonaviy axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va samarali boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi. Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz va hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir, hamda uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schyotida bir vaqtda hamda o'zaro bog'liq holda pulda baholab aks ettirish yo'li bilan ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati ustidan rahbarlik qilish hamda ishlab chiqarishning borishini boshqarish uchun axborotlarni olish maqsadida faqat kuzatuvning o'zi kifoya qilmaydi. Balki, olingan ma'lumotlarni o'lchash, ya'ni menejerlarga zarur bo'lgan ma'lum bir miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalash lozim bo'ladi. Undan keyin esa bu ko'rsatkichlar boshqarishga zarur bo'lgan yo'nalishda axborotni guruhlash, korxonalar faoliyatini

³ <http://www.genderi.org/zbekiston-respublikasi-tashqi-ishlar-vazirligi-jahon-iqtisodiy.html?page=10>

keyinchalik baholash va axborotning saqlanishini ta'minlash va auditni tashkil qilish maqsadida hisobning tegishli registrlarida ro'yxatga olinishi lozim bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotida mulkdorlar xo'jalik hisobidan maksimal darajada foyda olish va o'stirish uchun foydalanadi va bunda mulk egalari uning yordamida qo'yilgan mablag'lar va kapitalning yuqori samarali ishlatilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga harakat qilishadi. Bozor iqtisodiyotidagi xo'jalik hisobi maqsad foydaning shakllanish davrida ustida kuzatish hisoblanib, uning yordamida tadbirkorlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va mahsulot (ish, xizmat)lar sifatini yaxshilash hamda yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish vositalarining katta ulushiga ega bo'lgan tadbirkorlarning manfaatiga rioya qilinadi. Xo'jalik hisobidan ham xuddi shu yo'nalishda foydalaniladi.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy buxgalterning imkoniyatlarini kengaytirmoqda, buxgalteriya hisobi sifati va tezkorligini oshiradi, turli xil hisob-kitoblarni integratsiyalashning zamonaviy innovatsion yondashuvlarini shakllantiradi. Shaxsiy kompyuterlar va maxsus buxgalteriya dasturlari yordamida qog'oz ishini avtomatlashtirilgan hisob bilan almashtirish buxgalterni muntazam ishdan ozod qilish va ularning ish natijalarini yaxshilash imkonini berdi.

Bugungi kunda buxgalterning kundalik faoliyatiga tatbiq etiladigan barcha onlayn buxgalteriya operatsiyalarini, banklarni va axborot texnologiyalari portfellarini ishlab chiqarish imkonini beruvchi maxsus Internet-xizmatlar paydo bo'ldi. Bulutli texnologiyalar - axborotni saqlash va qayta ishlash uchun internetda bo'sh joy ijarasi xizmati. Bulutli texnologiyalar buxgalteriya hisobi uchun foydalanish uchun etarli afzalliklarga ega, ammo kamchiliklar ham mavjud, ularning asosiy qismi uzluksiz Internet aloqasi hisoblanadi. Bugungi kunda eng mashhur raqamli texnologiyalardan biri bulutli texnologiyalardir. Bulutli texnologiyalar Internet xizmati sifatida xotira yoki hisoblash kuchi kabi kompyuter resurslarini taqdim etishni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyadan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, tashkilotlar qimmatbaho texnikani sotib olishlari, uni ta'mirlash uchun mutaxassislarni yollashlari yoki maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatishlari shart emas. Bulut xizmatlaridan foydalanish uchun Internetga kirish etarli. Texnologiyadagi o'zgarishlar buxgalteriyaning o'zgarishiga olib keldi, bu esa olimlar va amaliyotchilarning asosiy tushunchalar modelini shakllantirish, qonunchilikni ishlab chiqish, me'yoriy hujjatlar, yangi raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi bo'yicha ko'rsatmalar va qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <https://kun.uz/uz/99444746>.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli. <https://lex.uz/docs/3564970>.
3. Хайдаров Н.Х. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журнали. 2020
4. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Budget daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. A.V.Vaxabov, Sh A.Tashmatov, N.X.Xaydarov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma-Toshkent. Baktria Press. 2013
6. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Davlat byudjeti. - Т.:" IQTISOD-MOLIYA, 2007
7. Н.Хайдаров. Соликлар ва соликка тортиш масалалари. Тошкент: Академия, 2007
8. Н.Хайдаров. Давлат молиясини бошқариш. Т.:«Академия, 2005
9. Nizamiddin Khaydarov. INTERNATIONAL EXPERIENCE OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN. 2021
10. Н.Хайдаров. Иктисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари. 2003
11. Uchqun Yunusovich O'roqov, Nozimaxon Jahongir qizi Rahimova. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati. RESEARCH AND EDUCATION. 2022/6/30
12. Urokov Uchkun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. Matters of revenue generation and cost optimization while increasing the efficiency of the state budget. Journal of Hunan University (Natural Sciences). 2021/12
13. У.Ю. Уроков, К.Р.Чинкулов. Ўзбекистонда давлат харидларининг такомиллашувининг ҳуқуқий асослари. Халқаро молия ва ҳисоб» журнали. 2017
14. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, O'sarov Javohir Bahodir o'g AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIYAVIY STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities
15. Baxtiyorovich, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li MM O'roqov Uchqun Yunusovich - Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali

16. Samadov Ortiq, Muzaffarov Mukhammadjon, Analysis of the Participation of the Republic of Uzbekistan in the Processes of International Economic Integration. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2023
17. Muhammadjon Muzaffarov. Davlat xaridlarini tashkil etish shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 2022
18. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. Buxgalteriya hisobini tashkil etish orqali korxonalar resurslarini boshqarish. Science and Education, 2023
19. У.Уроков. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. 2020
20. У Уроков. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йуллари. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йуллари. - 2017
21. U Yu O'roqov, NM Anvarov. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. 2022/6/30
22. У Уроков. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишнинг устувор йуналишлари. Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022/6
23. Ilhom Sobirov, Raqamli iqtisodiyot – rivojlanish trendlari va xususiyatlari, <https://kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari?q=%2Fnews%2F2020%2F07%2F06%2Fraqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari>
24. Abdusalomova Nafosat Baxodirovna, KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMI (ERP) ORQALI BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 2/2022
25. Razzaqova, D. A. Q. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 2(8), 243-249.